

## O'ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASINING TASHKIL ETILISHI VA TARIXIY SHART-SHAROITLARI

**Axmedov G'olibjon Mexmonkul o'g'li**

*Namangan davlat universiteti Magistratura 2-kurs tarix yo'nalishi*

**Ахмедов Голибжон Мехмонкулович**

*Наманган Государственный университет магистратуры 2-курс истории*

**Akhmedov Golibjon is the son of Mekhmonkul**

*Namangan State University Master's degree, 2nd course, history*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi, uning tashkil topishidagi tarixiy shart-sharoit, O'zbekistonda ekonomika, madaniyat va fanning rivojlanishidagi sharoitning fanlar akademiyasiga muhtojligini ko'rsatishi.*

**Kalit so'zlar:** *SSSR fanlar akademiyasi va uning O'zbekiston filiali, O'rta osiyo davlat universiteti, Toshkent maktab asoschisi, Institutlar faoliyati*

**Аннотация:** *В данной статье Академия наук Узбекской ССР, исторические условия ее создания, условия развития экономики, культуры и науки в Узбекистане показывают необходимость Академии наук.*

**Ключевые слова:** *Академия наук СССР и ее Узбекский филиал, Среднеазиатский государственный университет, основатель ташкентской школы, деятельность институтов.*

**Abstract:** *In this article, the Academy of Sciences of the Uzbek SSR, the historical conditions of its establishment, the conditions in the development of economy, culture and science in Uzbekistan show the need for the Academy of Sciences.*

**Keywords:** *Academy of Sciences of the USSR and its Uzbek branch, Central Asian State University, founder of the Tashkent school, activity of institutes*

Respublikada socialistik sanoat va qishloq xo'jaligining kuchli rivojlanishi Uzbekistonda madaniyat va fanning gullab-yashnashiga va O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining tashkil topishiga muhim shart-sharoit yaratib berdi.

O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi SSR Ittifoqi hukumatining 1943 yil 27 sentyabrda qabul qilgan qaroriga asosan tashkil etildi. Akademiyaning ochilish kuni Ulug' Oktyabri socialistik revolyusiyasining 26 yilligi kuniga to'g'ri keldi. U 1943 yil 4 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tdi. Bu tantanali majlisga ilmiy muassasalar, intelligensiya, zavodlar, fabrikalar, respublika partiya, sovet va harbiy tashkilotlari vakillari qatnashdi. O'zbekistonda ilmiy tafakkurning respublika shtabi bo'lgan Fanlar akademiyasini tashkil qilish uchun zaruriy shart-sharoit to'satdan paydo bo'lgani yo'q. Bu shart-sharoitlar Sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin socialistik qurilish va madaniyatning rivojlana borishi prosessida, ilmiy muassasalar tarmoqlarining kengayishi, ilmiy xodimlarning o'sishi va ilmiy-tek-shirish ishlarining kuchayishi tufayli yuzaga keldi.

1920 yili O'rta Osiyo davlat universiteti barpo etilgan davrdayoq tuproqshunoslik va geobotanika, botanika, geologiya, zoologiya, himiya, fizika-matematika, ilmiy-tekshirish institutlari, shuningdek bir qator ilmiy jamiyatlar paydo bo'lgan edi. Ular amalda O'rta Osiyoning, ayniqsa O'zbekistonning tuprog'ini, o'simliklarini, flora va faunasini o'rganish bo'yicha, shuningdek fizika, matematika va geologiya-mineralogiya fanlari bo'yicha olib boriladigan ilmiy ishlarni sistemali ravishda olib borishga asos soldi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarda Toshkentda universitet qoshidagi ilmiy-tekshirish institutlaridan tashqari, boshqa ilmiy-tekshirish institutlari ham paydo bo'ldi. 1917-yilda fizioterapiya instituti (keyinchalik Semashko nomidagi kurortologiya va fizioterapiya instituti) va Sanitariya – bakterologiya instituti keyinchalik epidemologiya va mikrobiologiya instituti) ochilgan edi. 1922 yilda Farg'ona va Toshkentda dastlabki ipakchilik ilmiy-tekshirish stansiyalari tashkil qilindi. Shu yili Toshkentda Turkiston (keyinchalik O'rta Osiyo) meteorologiya instituti ochildi. 1924 yilda Suv xo'jaligining maxsus gidrotexnika instituti va boshqalar barpo etildi.

Turkiston respublikasi Markaziy statistika bosh-qarmasi ba'zi tekshirish ishlarini olib bordi, u Turkiston ekonomikasi bo'yicha statistika materiallari to'pladi. Turkiston Kompartiyasi Komiteti qoshidagi Tarix instituti revolyusion harakatlar tarixini va sovet davri tarixini o'rgandi, to'g'rirog'i, bu masalalarga oid materiallarni to'plash bilan shug'ullandi. Usha davrda O'rta Osiyo kommunistik universitetida va Uzbekiston Revolyusiya muzeyida deyarli shu yo'nalishda ish olib borildi. Sovet hokimiyati Uzbekiston o'tmishining boy yodgorliklarini saqlash va ularni o'rganish to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qilib keldi. 1918 yildayoq qadimgi arxitektura yodgorliklarini saqlash va remont qilish komissiyasi tuzilgan edi, 1920 yilda esa Toshkentda muzey ishlari va qadimgi yodgorliklarni saqlash, san'at ham-da tabiat bo'yicha Turkiston komiteti ta'sis etilgan edi. Bu komitet yodgorliklarni saqlash, remont qilish va tiklash hamda arxeologik kavlash ishlari bilan shug'ullandi. Uzbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining barpo etilishi va 1925-1927 yillarda er-suv islohotining o'tkazilishi tufayli Uzbekistonda ilmiy ishlarning rivojlanishida yangi davr boshlandi. Eski ilmiy-tekshirish muassasalari qayta tuzildi, kengaytirildi, mustahkamlandi va yangi muassasalar, laboratoriya va stasionarlar barpo etildi. 1926 yilda suv xo'jaligining yirik Tajriba-tekshirish instituti (hozirgi O'rta Osiyo irrigasiya ilmiy-tekshirish instituti) ochildi, tajriba-sug'orish stansiyalari va gidrotexnika postlarining tarmog'i kengaydi. SAGUning ximiya laboratoriyasi asbob-uskunalar bilan jihozlandi. 1927-yili o'zbek mahalliy sanoat ilmiy-tekshirish instituti ochildi, Turkiston ipakchilik ilmiy-tekshirish stansiyasi O'rta Osiyo ipakchilik ilmiy-tekshirish institutiga aylantirildi. 1930 yili Kitobda Ulug'bek nomidagi Kenglik stansiyasi ta'sis etildi. Ayniqsa, irrigasiya, meliorasiya va tuproqshunoslikka oid ilmiy-tekshirish ishlar, shuningdek geologiya sohasidagi nazariy qidirish ishlari, himiya, astronomiya, tarix, arxeologiya va boshqa fanlar sohasidagi tekshirishlar kuchaytirildi.

Keyingi yillarda socialistik qurilishlarning avj oldirilishi tufayli, ilmiy-tekshirish ishlari yanada kuchaymoqda va chuqurlashmoqda, ilmiy muassasalar yanada rivojlanmoqda. 1929 yili O'zbekiston Davlat ilmiy-tekshirish instituti (UzGNII) ochildi, u madaniy qurilish, sanoat va qishloq xo'jaligi sohaslariga oid turli masalalarni o'rganish bilan shug'ullandi. Shu yili Paxtachilik ilmiy-tekshirish instituti (SoyuzNIXI) ham ochilgan edi. 1931 yili O'zbekiston Davlat ilmiy-tekshirish instituti asosida yangi institutlar: madaniy qurilish, socialistik dehqonchilik va sanoat-iqtisod institutlari barpo etildi, Sovet kurilishi va huquq instituti va boshqa institutlar ta'xis etildi. Ilmiy-tekshirish muassasalarining rivojlanishi. tufayli, ularga rahbarlik qiladigan yagona markaz barpo etish zarur bo'lib qoldi. 1932 yil 4 oktyabrda O'zbekiston SSR Sovetlar Markaziy Ijroiya Komiteti Prezidiumi: «O'zbekistonning ilmiy-tekshirish muassasalariga rahbarlik qilish uchun O'zSSR Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti (qisqacha Fanlar Komiteti) tashkil etilsin» deb qaror chiqardi. Bu Komitet 1934 yil 1 iyuldan boshlab respublika hukumati qaramog'iga o'tkazildi.

Fanlar Komiteti rahbarligida respublikada ilmiy- tekshirish ishlari reja asosida olib borildi, ishlab chiqiladigan masalalar tematikasining aktualligi oshdi. Respublika qishloq xo'jaligini tubdan qayta qurish bilan bog'liq bo'lgan yirik ilmiy ishlar shu davrda amalga oshirildi. Irrigasiya, meliorasiya, g'o'za seleksiyasi va boshqa sohalarga oid ilmiy ishlar keng avj oldirildi. SoyuzNIXI tizimida seleksiya bo'yicha maxsus ilmiy-tekshirish muassasasi, markaziy respublika seleksiya stansiyalari va bir qancha tayanch punktlari barpo etildi. Seleksiya bo'yicha olib borilgan katta ishlar natijasida g'o'zaning tezpishar, uzun tolali yangi navlari etishtirildi. Regional geologiya, gidrogeologik va geofizik tekshirish ishlari keng quloch yozdi. O'rta Osiyo davlat universiteti himiya laboratoriyasining kengaytirilishi himiya sohasidagi ilmiy-tekshirish ishlarini kuchaytirish uchun imkon berdi. Ehtimollik nazariyasi va matematik statistika Toshkent maktabini yaratgan V. I. Romanovskiyning matematikaga oid ko'pgina ilmiy ishlari xuddi shu davrga taalluqlidir. Nazariy va amaliy mexanika yanada rivojlandi. Uzbekiston astronomlari ham katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Uzbekiston tarixchilari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatish bo'yicha katta ishlar qilindi. Revolyu siya tarixi O'rta Osiyo instituti asosida O'rta Osiyo marksizm-leninizm instituti tashkil etildi. Keyinchalik u Butunittifoq marksizm-leninizm institutining filialiga aylantirildi. Arxeologiya, antropologiya va boshqa sohalarga oid ishlar O'zbekiston xalqlari tarixini o'rganish bilan chambarchas bog'langan holda olib borildi.

1940 yilga kelib O'zbekistonda nazariy va amaliy bilimlarning turli sohaslarida tekshirishlar olib boruvchi 60-70 ga yaqin maxsus ilmiy-tekshirish muassasalari, stansiyalar, stansionarlar bor edi. Fanni yanada rivojlantirish, undagi tarqoqlikni tugatish va ilmiy muassasalar ishlarining sifatini yaxshilash vazifalari tekshirish ishlariga rahbarlik qilishning yangi, yanada mukammallashgan ilmiy-tashkiliy shakllarini talab qilar edi. Shuning uchun ham o'z ishlarini muvaffaqiyatli olib borgan, lekin yangi sharoitga javob beraolmagan Fanlar Komiteti 1940 yil 9 yan- varda SSSR

Fanlar akademiyasining filialiga (UzFANga) aylantirildi. SSSR FA Uzbekiston filialining tashkil etilishi tufayli, O'zbekiston olimlari ilmiy markaz va mamlakatning yirik olimlari bilan bevosita yaqin aloqa o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ittifoq Akademiyasining ko'rsatgan yordami respublikada ilmiy-tekshirish ishlarning yanada tez sur'atlar bilan rivojlanishiga turtki bo'ldi. SSSR Fanlar akademiyasi O'zbekiston filiali xalq xo'jaligi va madaniy qurilishning asosiy talablarini qondirish maqsadida, muhim nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirdi. Uzbekiston filialining faoliyati o'tkazilgan tekshirishlarning nazariy darajasi va effektivligining oshganligi bilan xarakterlanadi. SSSR Fanlar akademiyasi Uzbekiston filiali uncha uzoq yashamasa ham (1940-1943 yillar), bir qator muhim ilmiy masalalar bo'yicha qimmatli ishlar qildi, tekshirishlar masshtabini kengaytirdi va bir necha yangi ilmiy muassasalar ochdi. 1940 yilda SSSR FA O'zbekiston filiali tizimida asosan mineral va o'simliklar xomashyosidan foydalanish bo'yicha tekshirishlar olib boruvchi Himiya instituti tashkil etildi. 1941 yilda Energetika instituti barpo etildi. Botanika va tuproqshunoslik instituti, Til, adabiyot, tarix instituti va boshqalar ko'pgina ishlar qildi.

Sovet xalqining fashist bosqinchilariga qarshi olib borgan Ulug' Vatan urushi respublika ilmiy-tekshirish muassasalari faoliyatida tubdan o'zgarish yasadi. Urush yillarida sovet olimlarining ijodiy kuchlari yagona tarixiy maqsadga - nemis-fashist galalarini tor-mor etishga qaratildi. Barcha ilmiy muassasalarning faoliyati urush davrining talablariga moslab olib borildi. Sovet vatanparvarligi hissi bilan qurollangan Uzbekiston olimlari mamlakatimizning hamma olimlari bilan hamkorlikda fashizmga qarshi muvaffaqiyatli kurashni ta'minlash uchun respublikaning yangidan-yangi resurslarini qidirib topdilar. Urush yillarida SSSR Fanlar akademiyasining birqancha ilmiy-tekshirish muassasalari, Moskva, Leningrad, Ukrainaning oliy o'quv yurtlari Toshkentga ko'chirib keltirildi. Sovet fanining ko'pgina atoqli arboblari - akademiklar, SSSR Fanlar akademiyasining korrespondent a'zolari, fan doktorlari Toshkentga keldilar.

Ularning O'zbekiston olimlari bilan hamkorlikda olib borgan ishlari fanning rivojlanish sur'atiga va darajasiga respublika olimlari ilmiy mahoratining oshishiga barakali ta'sir qildi. Urush davrining qiyinchiliklariga qaramay, ijodiy ilmiy ishlar yanada keng quloch yozdi. 1943 yilda respublika territoriyasida (vaqtincha ko'chirib keltirilgan ilmiy muassasalarni hisobga olmaganda) 19 ta ilmiy-tekshirish instituti, 23 ta ilmiy stansiya, 3 ta observatoriya, 11 ta muzey va 6 ta boshqa ilmiy-tekshirish muassasasi ishlab turardi. Bu davrga kelib O'zbekiston oliy o'quv yurtlari turli kasblar bo'yicha 20 mingdan ortiq mutaxassisni etishtirib chiqardi, bularning ko'pchiligi respublikaning ilmiy muassasalarida ishladi. 1943 yilda O'zbekiston mahalliy millat kadrlaridan iborat yirik olimlarga-fan doktorlari va kandidatlariga ega bo'ldi; ulardan ba'zilarining nomlari respublikamizdan tashqariga ham keng ma'lum bo'lgan edi.

Shunday qilib, O'zbekistonda ekonomika, madaniyat va fanning rivojlanib borishi davomida yuzaga kelgan shart-sharoitlar 1943 yili respublikada Fanlar akademiyasini tashkil etish imkoniyatini berdi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi "справочник" Toshkent 1958-yil
2. "Fan va turmush" jurnali 2023 yil, 1-son
3. Internet manbalari (Wikipedia)